

## VOLUME-2, ISSUE-2

### OG‘ZAKI MASALALAR YECHISHNI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA O‘RGATISH USULLARI

*Xujanova Maftuna Usmonqulovna,*

*Mirzaobod tuman 15-maktab boshlang‘ich ta‘lim o‘quvvchisi,*

*e/p: [xujanovamaftuna91@mail.ru](mailto:xujanovamaftuna91@mail.ru)*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlan‘ich ta’lim o‘quvchilarining matematika fanida og‘zaki masalalarini yechishda o‘ziga xos yo‘llari ko‘rsatilib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Birinchi topog‘on o‘quvchi”, mantiqiy fikrlash, matematikk masala, qobiliyat, maktab.

Hozirgi vaqtida o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlovchi, o‘z hayot pozitsiyasiga ega qilib tarbiyalash biz ustozlarning oldiga qo‘yilgan ustuvor vazifamizdir. O‘quvchilarimning ko‘pchiligining iqtidori baland, hammasi o‘qishga qiziqadi. Siz aziz ustoz, o‘quvvchilarga metodik yordam sifatida o‘zim qo‘llagan metodlardan darslarda foydalanishni tafsiya etaman.

Boshlang‘ich sinf matematika darslarida masala yechish o‘quvchilarda tafakkurni o‘stiradi. Tafakkur esa, inson ongida obyektiv olamning faol aks etishi demakdir. Bizga ma’lumki, hamma arifmetik masalalar ularni yechish uchun bajariladigan amallar soniga qarab, sodda va murakkab masalalarga bo‘linadi:

Yechilishi uchun bitta arifmetik amal bajarilisi zarur bo‘lgan masala sodda masala deyiladi.

Yechilishi uchun bir- biri bilan bog‘liq bo‘lgan bir nechta amalni bajarish zarur bo‘lgan masalalar murakkab masala deyiladi.

Siz maktabga borguncha ko‘p narsalarni ko‘rib borasiz. Oddiy bir daraxtni ko‘rganingizni, uning gullaganini, barglari, mevalar va hokazo.

“Birinchi topog‘on o‘quvchi”. Bolajonlar daraxtning mevalari ko‘p ekan. Birinchi daraxtda 30 ta, ikkinchi daraxtda 3 marta kam. Ikkala daraxtdagi mevalar nechta? Bolalarning javobini eshitasiz. Yoki mantiqiy savollar ham berishingiz mumkin. Hayvonlar, qushlar, hashoratlar haqida. Masalan 5 ta sigirni ko‘rdim. Ularning oyoqlari nechta? 2 ta oq quyon va 3 ta kulrang quyon. Ularning quloqlari nechta.

Bizga ma’lumki, masala shartlari murakkab bo‘lgan holda, berilganlar orasidagi munosabatlarni tushunib olish qiyin bo‘lgan hollarda, shuningdek, yangi xil masalalarni yechishda qisqa shartdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Haqiqatdan ham, masala berishda qisqa sharti o‘quvchilarga xotirasiga tayanch bo‘lib, son

## VOLUME-2, ISSUE-2

ma'lumotlarini tushunish va ajratish imkonini beradi, shu bilan birga ularning ratsional yozilishi masalada nima berilgan va nimani izlash kerakligini aniq tushuntirish imkonini yaratadi.

Hozirda maktablarda masalaning qisqacha shartini tuzish jarayonida ba'zi pedagoglar xato va kamchiliklarga yo'l qo'yadilar. Bunday kamchiliklarga yo'l qo'yilishining asosiy sabablaridan biri o'qituvchilar tomonidan matnli masalalar ustida ishslash metodiga rioya qilinmaslidir. Masala matni bilan dastlabki tashintirishda, masalaning qisqacha shartini ifodalashda, masala muhokamasida, masala yechilishini yozishda, yechilgan masala ustida ishslash kabi bosqichlarida ayrim xatoliklarni kuzatish mumkin. Ularning asosiy kamchiligi masalaning qisqacha shartini tuzishda ko'proq ko'zga tashlanadi. Masalan: Diyorada kitobning 25 sahifasigacha, Nodira esa Diyora o'qigan sahifadan 5 sahifa kam. Ikkasi necha sahifa o'qigan? O'quvchilar shunday masalalarni yechishda qiynalishadi. Shuning uchun har doim o'quvchilarda og'zaki masalalar tuzdirish, yechimini o'ylab javob berishga harakat qilish kerak. O'quvchilarda qachonki matematik misollarning yechimini og'zaki qiynalmay yecha olgan taqdirdagina masalalarni ham yecha oladi. Hozirgi zamon talablariga ko'ra matematik o'quvchilarning qobiliyatini oiladan, mактабгача та'limdan rivojlantirish kerak. 1-2-sinf o'quvchilarida narsalarni aralashtirib, 10 ta edi, 4ta qoldi. Nechtasini olib qo'yanini bilish kerak.

O'quvchilarni hisoblash va masalalar yechish qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarini boyitish, fikrlash qobiliyatini charxlash uchun "Bozorda", "Sayohatga sargushatlar" o'yini, "Matematik topishmoqlar"

"Zinama-zina", "Darchalarni to'ldir" kabi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'qituvchi eng avvalo mahoratli, bilimdon bo'lishi lozim. Bugungi kun talablariga javob berish uchun puxta tayyorgarlik bilan darslarni tashkil qilishi zarur. Shundagina ko'zlagan maqsadimizga erisha olishimiz muqarrar.

### Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi.(OO'Y uchun darslik)T. "Turon iqbol" 2016.
2. Burxonov S. uchinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. Sharq 2012-yil
3. N.Abdurahmonova Ikkinchi sinf matematika Toshkent Yangiyo'l Poligrat